

# artel

## KIR YUVISH MASHINASI

FOYDALANUVCHINING QO'LLANMASI

## СТИРАЛЬНАЯ МАШИНА

ИНСТРУКЦИЯ ПО ПРИМЕНЕНИЮ



WF80G447DW/G/S

WF80K237DW/G/S

WF80L277EW/G/S

WF80L487EW/G/S

WF80L2324G

WF80L2344G

WF85L2311E



## MUNDARIJA

Xavfsizlik talablari	3
Umumiy ko'rsatmalar	5
Texnik tavsif va talablar	5
Yetkazib berish komplekti	6
Avtomat kir yuvish mashinasining qurilmasi	7
Boshqaruv paneli bilan tanishish	8
O'rnatish va yoqish (kir yuvishga tayyorlash)	13
Kir yuvishdan oldin	15
Kir yuvish vositalarini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma	18
Kir yuvish mashinasidan foydalanish	19
Saqlash va texnik xizmat ko'rsatish	22
Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha qo'llanma	24
Utilizatsiya qilish	26
Qo'shimcha ma'lumotlar	26



## HURMATLI XARIDOR!

Avtomat kir yuvish mashinasi (keyingi o'rinlarda - mashina)ni sotib olayotganingizda kafolat talonining to'g'ri to'ldirilganligi va unda sotuvchi tashkilot muhri hamda sotib olingan sana mavjudligini tekshiring.

Mashinaning butligi va tashqi shikastlanishlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Foydalanish bo'yicha yo'riqnoma turli modeldagi mashinalar uchun ishlab chiqilgan.

Foydalanish bo'yicha yo'riqnomada mashinani boshqarish va undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.

Konstruktiv tuzilishiga ko'ra modellardan foydalanish o'zaro farqlanadi.

## DIQQAT!



Foydalanishdan avval ushbu avtomat kir yuvish mashinasini ishlatish bo'yicha yo'riqnomani diqqat bilan o'qib chiqing va maxsus belgi qo'yilgan bandlarga alohida e'tibor bering (quyidagi SHARTLI BELGILARga qarang).

## SHARTLI BELGILAR



*Diqqat!*



*Ta'qiqlanadi!*



*Yerga ulanish*



*Tok urish xavfi bor*


## XAVFSIZLIK TALABLARI

Mazkur mashina — maishiy elektr jihoz bo'lganligi sababli undan foydalanishda elektr xavfsizligi umumiy talablariga rioya qilish lozim. Mashina elektr tokidan shikastlanishdan himoyalanganligiga ko'ra I toifaga mansub.




Jihozdan jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyatlari cheklangan shaxslar (shu jumladan bolalar) foydalanishlari maqsadga muvofiq emas, agar ularning xavfsizligi uchun mas'ul shaxs nazorati yoki ko'rsatmasi bilan foydalanilgan hollar bundan mustasno.

Kir yuvish mashinasini o'ramini ochish vaqtida tegishli buyum va anjomlar (polietilen qoplar, penoplast va boshq.)ni o'z vaqtida olib qo'ying va bolalardan uzoqda saqlang. Bolalarning jihoz bilan o'ynashlariga yo'l qo'yilmasligi nazorat qilinishi lozim. Bolalarning mashinaning ustiga chiqishlari, uning ustida yoki ichida o'ynashlariga yo'l qo'ymang. Kir yuvish mashinasiga uy hayvonlari tegishiga yo'l qo'ymang.



Mashinani yoqishga mo'ljallangan yerga ulangan ikki qutbli rozetka favqulodda holatlarda mashinani elektr tarmog'idan uzishga qulay joyga o'rnatilishi lozim.




Shikastlangan elektr shnuridan foydalanmang. Mashinani elektr tarmog'iga ulashdan avval ta'minot shnurida shikastlanish mavjud emasligini tekshirish lozim. Shnur buklanmagan, tekis holatda bo'lishi kerak.


Ta'minot shnuri shikastlangan hollarda, xavfsizlik nuqtai nazaridan, uni almashtirish ishlab chiqaruvchi, servis xizmati yoki shunga o'xshash xizmatning malakali mutaxassisi tomonidan amalga oshirilishi lozim.



Zaharli gazlar ajralib chiqishi, mashinaning buzilishi, yong'in yoki portlash kelib chiqishi xavfi mavjudligi sababli mashinadan foydalanishda turli eritmalardan foydalanish ta'qiqlanadi.



Kir yuvish mashinasi uchun mos bo'lgan maxsus belgilangan hamda tegishli yerga ulangan rozetkadan foydalaning. Mashinani yoqish uchun yerga ulanmagan rozetkadan foydalanish ta'qiqlanadi. Noto'g'ri ravishda yerga ulash tok urishiga olib kelishi mumkin. Tarmoq shnuridagi vilkani almashtirmang. Agar u elektr rozetkaga mos kelmasa rozetkani almashtirish uchun malakali elektrik xizmatidan foydalaning.



Mashinani yoqish uchun elektr tarmog'iga ulanishda o'tkazuvchi, ko'po'rinli (ikki yoki undan ortiq ulanuvchi) rozetka va uzaytirilgan shnurlardan foydalanish ta'qiqlanadi.



Mashinani o'chirishda shnurdan tortib elektr tarmog'idan uzish ta'qiqlanadi.


Shnurni rozetkaga ulash va undan uzish, shuningdek ishlayotgan mashinaga ho'l qo'l bilan tegish ta'qiqlanadi.

Suv oqib turgan holatda mashinada yuvish ta'qiqlanadi. Kir yuvish mashinasi korpusiga suv quyvang.

Mashinani mustaqil ta'mirlash va uning tuzilishi hamda suv va elektr ta'minotiga o'zgartirish kiritish ta'qiqlanadi, aks holda bu, mashinaning jiddiy shikastlanishiga va kafolatli ta'mirlash huquqining bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Mashinani ta'mirlash faqat servis xizmatining malakali mutaxassisi tomonidan amalga oshirilishi lozim, shuningdek malakali amalga oshirilmagan ta'mirlash xavf keltirib chiqarishi mumkin.

Mashinada elektr qismlaridagi shovqin, tutun chiqishi bilan bog'liq va boshqa turdagi nosozlik aniqlangan hollarda mashinani rozetkadan ta'minot shnurini chiqarish orqali zudlik bilan elektr tarmog'idan uzish, servis xizmati mutaxassisini chaqirish lozim.



Vilkani rozetkaga kiritish va chiqarishda har doim vilkaning qo'l bilan ushlab uchun mo'ljallangan qismidan ushlang. Kirni yuvib bo'lgandan so'ng mashinani o'chiring, vilkani rozetkadan chiqarish orqali uni elektr tarmog'idan uzib qo'ying. Ta'mirlash va tozalash paytida ham vilkani rozetkadan chiqarib qo'ying.

### **Yuqori harorat tufayli kuyish xavfi mavjud.**

Yuqori haroratda kir yuvilganligi sababli oynali devor qizib ketadi. Mashina ishlayotgan paytda unga qo'l tekkazmang, ayniqsa, bu paytda bolalarni ehtiyot qiling.

Kir yuvish mashinasi ishlayotgan paytda bolalar va uy hayvonlarining mashinaga yaqin kelishlariga yo'l qo'ymang.

Mashina yuqori harorat bilan ishlayotgan paytda uning eshigini ochish lozim bo'lsa, harorat biroz sovushini kuting, shunda eshik avtomatik ochiladi.

Mashinani suv ta'minotiga ulashda faqatgina mahsulot yetkazish komplektiga kiruvchi yangi suv shlangidan foydalanish lozim. Eski shlangdan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi lozim.

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

## UMUMIY KO'RSATMALAR

1. Mashina faqat uy sharoitida maishiy foydalanish uchun mo'ljallangan.
2. Mashinadan quyidagi sharoitlarda foydalanilganda kafolat majburiyatlari amalga oshirilmaydi:
  - do'konlar, ofislar va boshqa ishxonalarda xodimlar uchun mo'ljallangan oshxonalarda;
  - fermadagi uylarda, kommunal uylarda umumiy foydalanish va kirxonalarda;
  - mehmonxonalar, motellar va boshqa turar-joy binolarida mijozlar tomonidan foydalanishi;
  - "tunash va nonushta" tipidagi kichik mehmonxonalarda;
  - restoranlarda, kafelarda, kasalxonalarda, bolalar bog'chasida, sanatoriyada va boshqalarda;
3. Mashinaning asosiy va butlovchi qismlari 1-rasmda ko'rsatilgan.
4. Mashinadan foydalanishda quyidagilarga rioya etilishi lozim:
  - atrof-muhit harorati  $25 \pm 10^{\circ}\text{C}$  va nisbiy namlikning 75 %dan ortiq bo'lmasligi;
  - oqava suv bosimi 0,05 dan 0,8 MPa gacha;
  - bir fazali elektr tarmog'idagi o'zgaruvchan tok chastotasi  $(50 \pm 1)$  Hz;
    - elektr tarmog'idagi o'zgaruvchan tok kuchlanishi  $220 (\pm 10 \%)$  V.

**!** **DIQQAT!** Binodagi havo haroratining  $0^{\circ}\text{C}$  dan tushib ketishi mashinadagi suvning muzlashiga va mashinaning sinishiga olib kelishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi mashina tuzilishi va ishlash sifatini takomillashtirish ustida tinimsiz ish olib borib, mashinaning texnik tavsiflarini o'zgartirmagan holda mashina tuzilishi va uning tarkibini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Mashina transportirovka qilingandan keyin atrofda havo harorati  $0^{\circ}\text{C}$  dan past bo'lgan hollarda mashinani yoqishdan oldin u odatiy xona haroratida 24 soat saqlanishi lozim.

**!** **DIQQAT!** Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) (shuningdek kafolat muddati mobaynida) saqlash yoki foydalanish qoidalarini buzish yoxud yengib bo'lmas kuch (yong'in, ommaviy tartibsizlik va boshq.) ta'sirida, uy hayvonlari, hashorat va kemiruvchilar tomonidan zarar yetkazilishi natijasidagi shikastlanish va nuqsonlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ishlab chiqaruvchi yuqorida keltirilgan ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga rioya qilinmagan xollarda mulkka va odamlarga yetkazilgan zarar yuzasidan javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

## TEXNIK TAVSIF VA TALABLAR

Asosiy texnik tavsif va talablar jadval №1 da keltirilgan.

### Texnik tavsif

Jadval №1

Model	WF80K237DW/G/S	WF80G447DW/G/S	WF80L277EW/G/S
O'lchamlari	600X580X850 mm	600X580X850 mm	600X580X850 mm
Maksimal hajm	8 kg	8 kg	8 kg
Energiya ta'minoti	220 V, 50Hz	220 V, 50Hz	220 V, 50Hz
Kir yuvish uchun zaruriy quvvat	140 W	140 W	140 W
Kir siqish uchun zaruriy quvvat	400 W	400 W	400 W
Suv isitish uchun zaruriy quvvat	1800 W	1800 W	1800 W
Suvning maksimal bosimi	0,8 MPa	0,8 MPa	0,8 MPa
Suvning minimal bosimi	0,05 MPa	0,05 MPa	0,05 MPa

## FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

Jadval №1

Model	WF80L487EW/G/S	WF80L2324G	WF80L2344G
O'lchamlari	600X580X850 mm	600X580X850 mm	600X580X850 mm
Maksimal hajm	8 kg	8 kg	8 kg
Energiya ta'minoti	220 V, 50Hz	220 V, 50Hz	220 V, 50Hz
Kir yuvish uchun zaruriy quvvat	140 W	140 W	140 W
Kir siqish uchun zaruriy quvvat	400 W	450 W	450 W
Suv isitish uchun zaruriy quvvat	1800 W	1800 W	1800 W
Suvning maksimal bosimi	0,8 MPa	0,8 MPa	0,8 MPa
Suvning minimal bosimi	0,05 MPa	0,05 MPa	0,05 MPa

### YETKAZIB BERISH KOMPLEKTI

Yetkazib berish komplekti jadval №2 da keltirilgan.


Jadval №2

Tarkibiy qismlar	Nomlanishi	Miqdori (dona)
Asosiy buyum	Avtomat kir yuvish mashinasi	1
	Suv shlangi	1
Yordamchi buyum	Tiqin	4
	Samorez	8
	Poddon	1
	Gayka kaliti	1
Foydalanish xujjatlari	Foydalanuvchining qo'llanmasi	1
	Kafolat taloni	1

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

## AVTOMAT KIR YUVISH MASHINASINING QURILMASI

Rasm 1



## AKSESSUARLAR

Foydalanish bo'yicha yo'riqnoma	Suv uzatish shlangi	Tiqin (4 dona)	Poddon	Gayka kaliti	Kafolat taloni	Samorez (8 dona)
						

## BOSHQARUV PANELI BILAN TANISHISH

Quyidagi modellar uchun:

WF80G447DW/G/S; WF80K237DW/G/S

### Dastur tanlash dastagi


- \* Mashinani yoqish/o'chirish uchun ushbu dastagni burang.
- \* Kir yuvish tugaganda mashina avtomatik ravishda o'chadi.
- \* Kiyim holati va turiga qarab tegishli dasturni tanlang.

### Display ekranini

- \* Mashina yoqilganda displeyda belgilangan vaqt/kir yuvish vaqti/ aylanish tezligi va boshqalarni ko'rsatadi.
- \* Ekranda ish tugashi vaqti namoyish etiladi.
- Masalan: 2 soat 20 minut 
- \* Xatolik yuz berganda ekranda xatolik kodi namoyish etiladi.
- Masalan: suv tushmasligi. 

### «+» va «-» tugmachalar

- \* Ushbu tugmachadan foydalanib jarayonni uzaytishingiz yoki qisqartirishingiz mumkin.
- \* Ushbu tugmacha yordamida siz kir yuvish jarayonini cheklab qo'yasiz yoki aksincha, uzaytirasiz.



### Harorat (Температура) tugmasi

- \* Kir yuvish dasturiga muvofiq haroratni tanlash tugmasi;
- \* Suv haroratining diapazoni turli dasturlar uchun mo'ljallangan;
- \* Ushbu tugmani 3 soniya davomida bosib turilsa, eshik avtomatik ravishda qulflanadi.

### Baraban aylanish tezligi (Скорость) tugmasi

- \* Zaruratga ko'ra baraban aylanishining turli tezliklaridan birini tanlang.
- \* Aylanish tezligi diapazonlari ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan

### Ivitib yuvish (Замачивание) tugmasi

- \* Zaruriyatga qarab ivitish davomligi tanlanadi.
- \* Funktsiyalar qisman dasturlash-tirilganda ivitishni nazorat qilish funksiyasi cheklanadi.

### Chayqash (Полоскания) tugmasi

- \* Asosiy chayqash doirasiga yana bir marta chayqash qo'shiladi.
- \* Ushbu funktsiya ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan.

### Kechiktirish (Отсрочка) tugmasi

- \* Ish boshlashni kechiktirish uchun. Ish boshlash va tugash vaqtiga moslab kerakli vaqtni belgilang.

### Qatlamsiz yuvish (Без складок) tugmasi

- \* Ushbu tugmachani tanlanganda qatlamsiz yuvish funksiyasi ishga tushadi

### Boshlash/To'xtatish (Пуск/Пауза) tugmasi

- \* Ish boshlash uchun ushbu tugmani bosing.
- \* Ishni to'xtatish uchun ushbu tugmani bosing, ishini davom ettirish uchun tugmani yana bir marta bosing.
- \* Ushbu tugmani (kir yuvish mashinasi o'chiq turgan holda ham) 3 soniya davomida bosib turilsa, kir yuvish mashinasi avtomatik ravishda yuvishni boshlaydi

### Dog'larni yuvish (Удаление пятен) tugmasi


- \* Ma'lum bir dog'larni yuvishda ishlatiladi.
- \* Ushbu tugmachani 3 soniya davomida bosib turilsa, kir yuvish mashinasi dog'ni yuvish funksiyasida avtomatik ravishda ishga tushadi

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

## BOSHQARUV PANELI BILAN TANISHISH

### Quyidagi modellar uchun:

WF80L277EW/G/S; WF80L487EW/G/S



## BOSHQARUV PANELI BILAN TANISHISH

Quyidagi modellar uchun:


WF80L2324G

### Dastur tanlash dastagi

- \* Mashinani yoqish/o'chirish uchun ushbu dastagni burang.
- \* Kir yuvish tugaganda mashina avtomatik o'chadi.
- \* Kiyim holati va turiga qarab tegishli dasturni tanlang

### Displey ekrani

- \* Mashina yoqilganda displeyda belgilangan vaqt/kir yuvish vaqti/aylanish tezligi va boshqalarni ko'rsatadi.
- \* Ekranda ish tugashi vaqti namoyish etiladi.  
Masalan: 2 soat 20 minut 
- \* Xatolik yuz berganda ekranda xatolik kodi namoyish etiladi.  
Masalan: suv tushmasligi. 



### Harorat (Температура) tugmasi

- \* Kir yuvish dasturiga muvofiq haroratni tanlash tugmasi;
- \* Suv haroratining diapazoni turli dasturlar uchun mo'ljallangan;
- \* Ushbu tugmani 3 soniya davomida bosib turilsa, eshik avtomatik ravishda qulflanadi.

### Baraban aylanish tezligi (Скорость) tugmasi

- \* Zaruratga ko'ra baraban aylanishining turli tezliklaridan birini tanlang.
- \* Aylanish tezligi diapazonlari ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan
- \* Ushbu tugmani 3 soniya davomida bosib turilsa Ovozsi rejim aktivlashadi

### Siqish (Отжим) tugmasi

- \* Asosiy siqish doirasiga yana bir marta siqish qo'shiladi.
- \* Ushbu funktsiya ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan.

### Boshlash/To'xtatish (Пуск/Пауза)

- \* Ish boshlash uchun ushbu tugmani bosing.
- \* Ishni to'xtatish uchun ushbu tugmani bosing, ishni davom etirish uchun yana bir marta bosing.

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

## BOSHQARUV PANELI BILAN TANISHISH

Quyidagi modellar uchun:

WF80L2344G

### Стирка с паром (Bug' bilan yuvish)


\*Alohida belgilangan dasturlar tanlanganda bug' bilan yuvish funksiyasi aktivlashadi.

### Dastur tanlash dastagi

\*Mashinani yoqish/o'chirish uchun ushbu dastagni burang.  
\*Kir yuvish tugaganda mashina avtomatik o'chadi.  
\*Kiyim holati va turiga qarab tegishli dasturni tanlang

### Display ekrani

\* Mashina yoqilganda displeyda belgilangan vaqt/kir yuvish vaqti/aylanish tezligi va boshqalarni ko'rsatadi.  
\* Ekranda ish tugashi vaqti namoyish etiladi.  
Masalan: 2 soat 20 minut **2:20**  
\* Xatolik yuz berganda ekranda xatolik kodi namoyish etiladi.  
Masalan: suv tushmasligi. **E11**



### Harorat (Температура) tugmasi

\* Kir yuvish dasturiga muvofiq haroratni tanlash tugmasi;  
\* Suv haroratining diapazoni turli dasturlar uchun mo'ljallangan;  
\* Ushbu tugmani 3 soniya davomida bosib turilsa, eshik avtomatik ravishda qulflanadi.

### Baraban aylanish tezligi (Скорость) tugmasi

\* Zaruratga ko'ra baraban aylanishining turli tezliklaridan birini tanlang.  
\* Aylanish tezligi diapazonlari ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan  
\* Ushbu tugmani 3 soniya davomida bosib turilsa Ovozsi rejim aktivlashadi

### Chayish (Полоскание) tugmasi

\* Asosiy chayqash doirasiga yana bir marta chayqash qo'shiladi.  
\* Ushbu funktsiya ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan

### Boshlash/To'xtatish (Пуск/Пауза)

\* Ish boshlash uchun ushbu tugmani bosing.  
\* Ishni to'xtatish uchun ushbu tugmani bosing, ishni davom etirish uchun yana bir marta bosing.

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

## BOSHQARUV PANELI BILAN TANISHISH

### Quyidagi modellar uchun:

WF85L2311E

#### Ситирка с паром (Bug' bilan yuvish)

\* Alohida belgilangan dasturlar tanlanganda bug' bilan yuvish funksiyasi aktivlashadi.

#### Dastur tanlash dastagi


\* Mashinani yoqish/o'chirish uchun ushbu dastagni burang.  
\* Kir yuvish tugaganda mashina avtomatik ravishda o'chadi.  
\* Kiyim holati va turiga qarab tegishli dasturni tanlang.

#### Displey ekranini

\* Mashina yoqilganda displeyda belgilangan vaqt/kir yuvish vaqti/ aylanish tezligi va boshqalarni ko'rsatadi.

\* Ekranda ish tugashi vaqti namoyish etiladi.  
Masalan: 2 soat 20 minut **2:20**

\* Xatolik yuz berganda ekranda xatolik kodi namoyish etiladi.  
Masalan: suv tushmasligi. **E11**



#### Harorat (Температура) tugmasi

\* Kir yuvish dasturiga muvofiq haroratni tanlash tugmasi;  
\* Suv haroratining diapazoni turli dasturlar uchun mo'ljallangan;  
\* Ushbu tugmani 3 soniya davomida bosib turilsa, eshik avtomatik ravishda qulflanadi.

#### Chayqash (Полоскания) tugmasi

\* Asosiy chayqash doirasiga yana bir marta chayqash qo'shiladi.  
\* Ushbu funktsiya ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan.

#### Baraban aylanish tezligi (Скорость) tugmasi

\* Zaruratga ko'ra baraban aylanishining turli tezliklaridan birini tanlang.  
\* Aylanish tezligi diapazonlari ayrim dasturlar uchungina mo'ljallangan

#### Kechiktirish (Отсрочка) tugmasi

\* Ish boshlashni kechiktirish uchun. Ish boshlash va tugash vaqtiga moslab kerakli vaqtni belgilang.

#### Dog'larni yuvish (Удаление пятен) tugmasi

\* Ma'lum bir dog'larni yuvishda ishlatiladi.

#### Boshlash/To'xtatish (Пуск/Пауза) tugmasi

\* Ish boshlash uchun ushbu tugmani bosing.  
\* Ishni to'xtatish uchun ushbu tugmani bosing, ishini davom ettirish uchun tugmani yana bir marta bosing.  
\* Ushbu tugmani (mashina o'chiq turgan holda ham) 3 soniya davomida bosib turilsa, kir yuvish mashinasi avtomatik ravishda yuvishni boshlaydi

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA



## O'RNATISH VA YOQISH (KIR YUVISHGA TAYYORLASH)

	<p>Mashinani o'rnatish uchun mo'ljallangan joyda qor, yomg'ir, yuqori namlik ta'sir ko'rsatmasligi lozim, aks holda bu tok urishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kir yuvish mashinasiga to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushishiga yo'l qo'yilmasligi lozim.</p>
	<p>Kir yuvish mashinasini tik holatda joylashtirilishi lozim. Kir yuvish mashinasining noto'g'ri o'rnatilishi kuchli shovqin va shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin.</p>
<p>Spirтли o'lchagich</p> <p>Boshqariladigan oyoqchalar</p>	<p>To'g'rilash: Tebranish va haddan ortiq shovqinni oldini olish maqsadida kir yuvish mashinasi gorizontol holatda joylashtirilishi lozim. Mashinaning barcha to'rt oyoqlari polga mahkam o'rnanishiga ishonch hosil qiling hamda mashinaning gorizontol joylashuvini spirтли o'lchagich yordamida tekshiring. Boshqariladigan oyoqchalar yordamida mashina holatini to'g'rilang. Kir yuvish mashinasini va boshqariladigan oyoqchalarni burash orqali mashinani sinchkovlik bilan to'g'rilang. Mashina joylashuvi tekisligini to'g'rilash uchun karton, yog'och bo'lagi yoki shunga o'xshash boshqa materiallardan hech qachon foydalanmang.</p>
	<p>Kir yuvish mashinasi yaqinida elektr isitish jihozlari, isitish tizimi, yoqilgan sham yoki sigareta va boshqa uchqun chiqarishi mumkin bo'lgan jismlar bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Bu plastik qismlarning shikastlanishi yoki yong'in kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.</p>
	<p>Benzin, benzol, hasharotlarga qarshi qo'llanadigan suyuqliklar singari uchuvchi moddalardan foydalanish mumkin emas. Kir yuvish baki ichida oqartuvchi vosita singari ishqor moddalar qoldirilishi mumkin emas. Bu plastik va rezina detallar ustki qismining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.</p>
	<p>Polning devor oralig'idagi tekis va qattiq sathini 100 mm dan ko'proq miqdorda tanlanishi lozim, aks holda, shovqin va tebranish kelib chiqadi. Kir yuvish mashinasi vilkaga qulay holatda joylashtirilishi kerak. Mashinaning ostki qismida elektr dvigateli sovutish ventilyatsiyasi mavjudligi sababli uni gilam ustiga joylashtirish mumkin emas. Kir yuvish mashinasining noto'g'ri o'rnatilganligi kuchli shovqin va shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin. Kir yuvish mashinasiga suyanmang, undan taglik, ustuncha sifatida foydalanmang.</p>
	<p>Suv chiqarish shlangi (bukilish joyi) kir yuvish mashinasining tubidan hisoblaganda 60-90 sm balandlikda bo'lishi kerak.</p>

**⚠ Diqqat!** Mashinadan foydalanishdan oldin transportirovka boltlarini chiqarib tashlang. Chiqarib tashlanmagan transportirovka boltlari kir yuvish mashinasiga zarar yetkazishi mumkin.

<p style="text-align: right;">Himoya qobig'i</p>	<p><b>Mustahkamlovchi boltlar va himoya qobig'i (pastdagi penoplast)ni yechib olish</b></p> <p>Kir yuvish mashinasini tashishda ehtiyotlash uchun, u to'rtta mustahkamlovchi boltlar bilan jihozlangan bo'lib, kir yuvish masinasini ishlatishdan avval ularni yechib olish lozim (aks holda kir yuvish mashinasi qattiq titraydi, shovqin chiqaradi).</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustahkamlovchi boltlarni (4 dona) gaykali kalit yordamida bo'shatib oling.</li> <li>2. Boltlarni o'ngga-chapga tortib, chiqarib oling. Teshiklarning tegishli qopqoqlar bilan berkiting. Iltimos, mutaxassisdan kir yuvish mashinasini o'rnatib berishini so'rang.</li> </ol> <p>Mustahkamlovchi boltlarni saqlab qo'yishni tavsiya qilamiz, ular keyinchalik kerak bo'lib qolishi mumkin. Ishlatishdan avval rasmda korsatilgan himoya qobig'i (penoplast)ni kir yuvish mashinasining pastki qismidan olib tashlang va tiqilib qolmaganligiga ishonch hosil qiling, bu kir yuvish mashinasining yaxshi ishlashiga ta'sir ko'rsatadi.</p>
--	---

## Oqava suv tizimiga ulanish

	<p><b>Diqqat!</b> Oqava suv tizimidagi suvning bosimi belgilangan me'yorda ekanligiga ishonch hosil qiling:</p> <p><b>Diqqat!</b> Oqava suv tizimidagi suvning bosimi 0,3 MPa ~ 1,0 MPa ekanligiga ishonch hosil qiling</p> <p><b>Diqqat!</b> Agar suvning bosimi yuqorida ko'rsatilganidan yuqori bo'lsa suvoqava tizimiga bosim reduktori o'rnatilishi lozim.</p> <p><b>Diqqat!</b> Kir yuvish mashinasini oqava suv tizimiga ulash uchun faqatgina mashina komplekti tarkibiga kiruvchi yangi shlangdan foydalaning. Eski shlangni qayta ishlatish mumkin emas.</p>
	<p>Shlangning bir uchini o'zingizga tegishli yo'nalishda burib, mashinaga ulang. Shlangni keraklixa yoyish uchun uning muftasini bo'shatib va shlangni to'g'rilaganingizdan so'ng shlangdan suv oqmayotganligiga ishonch hosil qilganingizdan keyin muftani qaytadan mahkamlang.</p>
	<p><b>Diqqat!</b> Mashinani ilgari foydalanilmagan trubaga yoki yangi trubaga ulashdan oldin unda yig'ilib qolgan turli iflosliklar chiqib ketishi uchun unga suv to'ldirib, oqizing.</p>
	<p>Suv shlangining boshqa bir uchini suoqava kraniga ulang. Shlangning zichligini kranni ochish va kerakli miqdorda suv to'latish bilan tekshiring. Shlang qayrilmaganligi va qisilib qolmasligini tekshiring. Suv oqayotgan hollarda qoplamali gayka bilan mahkamlang. Agar suvning bosimi kuchli bo'lsa kranni to'liq yoping va uni asta-sekinlik bilan oching.</p>
	<p><b>Diqqat!</b> Issiq suvdan foydalanmang. Agar siz foydalanadigan kran mos kelmasa sotuvchi yoki mutaxassis bilan maslahatlashing.</p>

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

## Suv shlangini ulash



Suv chiqarish shlangini ulash kir yuvish mashinasi ishlamayotgan paytda amalga oshiriladi.  
Kir yuvish mashinasi optimal ishlashi uchun nasos filtrini muntazam tozalab boring.  
Eslatma: suvni qaytarish tizimi noto'g'ri ishlashini oldini olish maqsadida suv shlangi xalqasini chiqarib olmang.

## KIR YUVISHDAN OLDIN

### 1. Birinchi marta kir yuvishdan oldin

Kiyim solmasdan to'la siklda (60°C "ХЛОПОК" rejimida normaning yarmi miqdorida kir yuvish vositasi bilan) kir yuvishni amalga oshiring. Bu barabanning ishlab chiqarish paytidagi iflosliklarini bartaraf etadi.

### 2. Yorliqlar

Kiyimlardagi yorliqlar mazmunini o'rganib oling. Odatda, bunday yorliqlarda mato hamda mumkin bo'lgan kir yuvish rejimlari to'g'risidagi ma'lumotlar aks etadi.

## Kiyimlar yorliqlarida foydalaniladigan piktogrammalar mazmuni

Jadval №3

Belgi	Tavsif	Tavsiya	Boshqa belgilar
	Odatdagi kir yuvish		Kimyoviy va quruq tozalash
	Qaynoq suv yordamida kir yuvish	Qaynoq suvga chidamli paxtali yoki zig'irli oq mato yoki rangli mato	Barcha usullar bilan tozalash mumkin
	60 °C dagi suvda rangli matolarni yuvish	Paxta yoki poliefir matodan tayyorlangan nozik mato kabi qaynoq suvga chidamsiz material	Perxloretlen asosida tozalash
	Iliq suvda kir yuvish (Avaylab yuvish rejimi)	Neytral kir yuvish vositasida va 40°C dagi suvda kir yuvish. Masalan, to'q rangli va rang-barang paxtali mato, poliefir yoki olachipor mato, sintetik tola va viskozadan tayyorlangan mato	Maxsus eritma asosida tozalash
	Iliq (deyarli sovuq) suvda kir yuvish	Neytral kir yuvish vositasida kir yuvish. Masalan, kir yuvish mashinasida yuviladigan jun mato	Ushbu belgi mavjud kiyimlar ehtiyotkorlik bilan tozalash tozalash lozimligini bildiradi 
	Qo'lda yuvish	Kir yuvish mashinasida yuvib bo'lmaydigan trikotaj mahsulotlar. Suv harorati mahsulot turiga qarab 30-40°C bo'lishi lozim.	Kimyoviy tozalash mumkin emas

Belgi	Tavsif	Tavsiya	Boshqa belgilar
	Yuvilmasin	Ushbu belgi mavjud kiyimni yuvish mumkin emas. Kimyoviy tozalash tavsiya etiladi.	 Elektr quritish uskunasi quritish
	Oqartirish		 Normal haroratda quritish
	Xlor bilan yuvish	Yaxshi namlangan kiyimni xlorli eritmali suvda 1-2 soat ivitilsin (1 litr suvda 10-20 ml eritma) va xlor hidi ketgunga qadar chayqalsin. So'ngra ko'rsatilgan suv haroratida kir yuvish vositasida yuvish.	 Avaylab quritish (past haroratda)
	Oqartirish mumkin emas	Xlor va tarkibida xlor mavjud kir yuvish vositalari va oqartuvchi kir yuvish mashinasi kundanlikdan foydalanilmasin.	 Elektr quritish uskunasi quritilmasin
	Dazmol qilish		 Tik quritish
	Yuqori haroratda dazmol qilish (maksimum 200°C)	Paxta, zig'ir va trikotaj mahsulotlari namlangan holatda.	 Gorizontal yuzada quritish
	O'rtacha haroratda dazmol qilish (maksimum 150°C)	Paxta, shoyi, poliefir, viskoza. Engil namlanadigan mato ustidan yoki parli dazmol bilan dazmol qilinsin.	 Siqmasdan quritish
	Yuqori haroratda dazmol qilinmasin (maksimum 110°C)	Poliakril, poliamid, poliester, asetat	 Xlorsiz oqartirish lozim
	Dazmol qilinmasin		

### 3. Saralash


- Turli matolarni turli haroratda va turli tezlikda aylantirish orqali yuvish lozim. Yaxshi natijaga erishish uchun bir xil rejimda yuviladigan kiyimlarni ajratib oling.
- Har doim to'q, yorqin va rangli matolarni ajrating. Aks holda yorqin va rangli mato o'z rangini yo'qotishi mumkinligi sababli ham alohida yuvish lozim.
- Juda ifloslangan kiyimlarni uncha ifloslanmagan kiyimlar bilan birgalikda yuvmang.
- Sifatli kir yuvish uchun kir yuvishdan oldin ozgina miqdordagi yuvish vositasini suvga eritib, dog'lar va ko'proq ifloslangan joylarga, masalan yoqa va yenglarga surtib chiqing. Bu dog'lar yaxshi ketishini ta'minlaydi.

## FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

### 4. Kiyimlarni solishdan oldin

Mashinaga kiyimlarni solishda kichkina kiyimlarni katta kiyimlar bilan aralashiring. Dastlab katta kiyimlarni soling. Ular mashinaga solingan kiyimlar umumiy hajmining yarmidan ortib ketmasligi lozim. Mashinada katta kiyimlarni alohida yuvmang. Bu baraban muvozanati buzilishiga olib kelishi mumkin. Mashinaga yana shu turdagi kiyimlardan bir yoki ikkita soling.


**!** **Diqqat! Har safar kir yuvishdan oldin quyidagi tavsiyalarga amal qiling:**

	<p>Kiyimning barcha cho'ntaklarini tekshiring va ular bo'sh ekanligiga ishonch hosil qiling.</p> <p>Begona predmetlar, masalan, mix, ruchka, tanga, kalit, to'g'nog'ich, turli rezinkalar va shunga o'xshash predmetlar kir yuvish jarayonida mashinaga, shuningdek, kiyimlaringizga zarar yetkazishi mumkin.</p>
	<p>Barcha tizmalar, tugmalar va bog'lamalarni berkiting, aks holda u mashinaning rezina zichlagichi yoki boshqa kiyimga zarar yetkazishi mumkin.</p>
	<p>Mashinaning rezina zichlagichi va kiyimlarga zarar yetkazmaslik maqsadida zichlagich va mashina eshigi orasida kiyim qisilib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.</p>
	<p>Eshik zichlagichi atrofida qisilib qolishi mumkin bo'lgan mayda predmetlar yo'qligini tekshiring.</p>
	<p>Barabanda oldingi kir yuvishdan qolgan predmetlar yo'qligini tekshiring. Ular keyingi kir yuvishda zarar keltirishi mumkin.</p>
	<p>Mazkur tavsiyalarga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqqan kir yuvish mashinasi detallarining singanligi va buzilganligi uchun kafolatli ta'mirlash amalga oshirilmaydi.</p>

## KIR YUVISH VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

Suvni yumshatish, suyuq kir yuvish va oqartirish vositalari

- \*Kondisionerni yuvish jarayonidan oldin quyning, oxirgi marta chayishda mashina avtomatik tarzda uni qo'shadi
- \*Konsentrsiyalangan kondisionerni maxsus bo'limga quyishdan avval suv bilan aralashtirib, so'ngra quyning.



Kukunli sintetik kir yuvish vositalari

- \* Kir yuvish kukunlari va yuvish vositalari uchun mo'ljallangan

- Kuchli ko'piklanadigan kir yuvish kukunini yoki kir yuvish vositasidan foydalanish ta'qiqlanadi.
- Ishlab chiqaruvchi yo'riqnomasiga muvofiq kir yuvish vositalaridan foydalaning.
- Kir yuvish vositasining haddan tashqari ko'p solinishi ko'pik hosil bo'lishiga olib keladi va chayqashga ta'sir qiladi, bu esa ishlash jarayoni buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Kiyimning rangi va turi, ifloslanganlik darajasi va suvning haroratiga mos ravishda yuvish vositasini tanlang.
- Faqatgina avtomat kir yuvish mashinasida kir yuvish uchun mo'ljallangan kir yuvish kukunidan foydalaning.

## KIR YUVISH MASHINASIDAN FOYDALANISH

### Eshikning ochilishi va yopilishi

#### Eshikning yopilishi

Kir yuvish mashinasi ishga tushganidan so'ng uning eshigi avtomatik ravishda qulflanadi, bu vaqtda **“Eshik qulflangan”** yozuvli indikator lampasi yonadi.

#### Eshikning ochilishi

**“Eshik qulflangan”** yozuvli indikator lampasi yonib turgan paytda **“Пуск/Пауза”** tugmasini bosib, baraban aylanishdan to'xtaganda, eshik avtomatik tarzda ochiladi.

- Eshik, shuningdek, elektr tokidan vilkani chiqarganingizdan so'ng 2 daqiqa ichida ochiladi.
- Kir yuvish paytida eshikcha ochilganda barabandan ko'pik chiqib ketganligi sababli ko'pikni sochiq yordamida artib tashlash lozim.
- Yuqori haroratda yoki maksimal suv darajasida kir yuvilayotgan paytda eshikni ochish mumkin emas.

#### Kir yuvish paytida operatsiyalarning ketma-ketligi

##### 1. Tayyorgarlik

- Kiyimni barabanga soling va eshikni yoping.
- Yuvish va yumshatish vositasini qo'shing.
- Kranni oching va suv shlangini o'rnatib.

##### 2. **Dastur** (Elektr ta'minoti) dastagini burang.

##### 3. **Dastur** dastagi yordamida dasturni tanlang.

##### 4. Kir yuvishni boshlash uchun **Пуск/Пауза** tugmasini bosib.

##### 5. Kir yuvish tugagandan so'ng ogohlantirish signali chalinadi va kir yuvish mashinasi avtomatik tarzda o'chadi.

#### Ish jarayonini to'xtatib turish funksiyasi operatsiyalarining ketma-ketligi

● **Dastur** dastagi (Elektr ta'minoti) tugmasini burang, tanlash dastagi yordamida dasturni tanlang, so'ngra kir yuvish jarayoni va funksiyasini tanlang. Ishni tugatish vaqtini kechiktirish uchun **Kechiktirish** tugmasini bosib. Keyin **Kechiktirish** funksiyasini ishga tushirish uchun **Пуск/Пауза** tugmasini bosib. (**Kechiktirish** vaqti oralig'i 1 soatdan maksimal 24 soatgacha davom etishi mumkin).

Eslatma

- **Kechiktirish** funksiyasini bekor qilish uchun **Dastur** dastagini kir yuvish mashinasi o'chguniga qadar burang.
- **Kechiktirish** funksiyasi jarayonini tekshirish uchun **Kechiktirish** tugmasi bosiladi, shunda kir yuvish mashinasi 5 soniya ichida joriy sozlashni namoyish qiladi.

***Suv bosimi, oqimi, harorati, kiyim turi va boshqa omillarga ko'ra ishni tugatishning aniq vaqti belgilangan vaqtdan farqlanishi mumkin.***

### “ШЕРСТЬ” dasturini qo'llash operatsiyalarining ketma-ketligi

- **Dastur** dastagini burang, **Dastur** dastagi yordamida “ШЕРСТЬ” dasturini tanlang.

#### Eslatma


- Kir yuvishdan oldin kiyim yorlig'idagi kir yuvishga oid yo'riqnomani o'qib chiqing.
- Kir yuvish tugagandan so'ng kiyimni olib, lozim bo'lsa quritish uchun ilib qo'ying.
- Zarar yetmasligi uchun suvning harorati 40°C dan ortmasligi lozim.
- Kiyimning zararlanmasligi hamda kir yuvish samaradorligiga erishish uchun jun mato uchun maxsus yuvish vositasidan foydalaning.
- Oq va rangli kiyimlarni to'q rangli kiyimlardan ajrating.

### “ПОСТЕЛЬНОЕ БЕЛЬЕ” dasturini qo'llash operatsiyalarining ketma-ketligi

#### Eslatma

- **Dastur** dastagini burang, **Dastur** dastagi yordamida “ПОСТЕЛЬНОЕ БЕЛЬЕ” dasturini tanlang.

Ko'rpani quyidagi rasmda ko'rsatilganidek joylashtiring



#### Eslatma

- Agar kir yuvish mashinasi ko'rpani yuvishi mumkin bo'lsa xaltadan foydalanmang. Aks holda kir yuvish mashinasi siqish paytida kuchli tebranish natijasida buzilishi mumkin.
- Ko'rpani kir yuvish mashinasiga solish uchun uni o'ramang.
- Elektr ko'rpa yoki gilamni yuvmang.
- Suvning haroratini 30°C dan yuqori etib belgilamang.

### “Стирка с паром” funksiyasini qo'llash operatsiyalarining ketma-ketligi

- Alohida (ko'k rang bilan) belgilangan dasturlar tanlanganda “Стирка с паром” tugamsini bosib, kiyimlarni bug' bilan qo'shimcha tozalash funksiyasini aktivlashtirish mumkin.

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

## KIR YUVISH REJIMLARI PARAMETRLARI

Jadval №4

Dastur	Qo'llanilishi	Maksimal yuklanish (kg)
Смешанные ткани (Aralash matolar)	Ushbu funktsiya paxta va sintetik tolali matolar uchun qo'llaniladi	6
Хлопок (Paxta)	Faqat paxta tolali matolar uchun qo'llaniladi	Nominal yuklanish
Спортивные вещи (Sport buyumlari)	Sport buyumlarni yuvish uchun qo'llaniladi	3
Джинсы (Jinsi)	Jinsi matolar uchun qo'llaniladi	4
Шерсть (Jun)	Jun tolali matolar uchun qo'llaniladi	2
Постельное белье (Choyshablar)	Yirik matolarni yuvish uchun qo'llaniladi	6
Пуховые вещи (Parli narsalar)	Momiq matolarni yuvish uchun qo'llaniladi	4
Очистка барабана (Barabanni tozalash)	Barabanni tozalashda qo'llaniladi. Matoni joylashtirish tavsiya etilmaydi	-
Быстрая стирка 15' (Tezkor yuvish 15')	Faqat paxta tolali matolar uchun qo'llaniladi	1
Цветные вещи 15°C (Rangli kiyimlar 15°C)	Rangli va jozibali kiyimlarni yuvishda qo'llaniladi	4
Нижнее белье (Ichki kiyimlar)	Ichki kiyimlarni yuvish uchun qo'llaniladi	4
Стирка 80°C (80°C da Yuvish)	80°C da Yuvishga mo'ljallangan matolarni yuvish uchun qo'llaniladi	Nominal yuklanish
Детские вещи (Bolalar kiyimlari)	Bolalar kiyimlarini yuvish uchun qo'llaniladi	Nominal yuklanish
Шелк (Ipak)	Faqat ipak tolali matolar uchun qo'llaniladi	3
Полоскание и отжим (Chayqash va siqish)	Chayish va siqish uchun qollaniladi	6
Отжим (Siqish)	Faqat siqish uchun qo'llaniladi	6
Гипоаллергенная (Gippoallergen)	Yuqori harorat bilan kiyimga o'rnashgan turli xil allergiya qo'zg'atuvchilarni tozalash uchun qo'llaniladi	4
Глубокие пятна (Chuqur dog'lar)	Kiyimlardagi chuqur o'rnashgan dog'larni yuvish uchun qo'llaniladi	3
Рубашка (Ko'ylak)	Nozik matoli ko'ylaklarni yuvish uchun qo'llaniladi	3
Синтетика (Sintetika)	Polister(diolen, trevira), poliamid(perlon, neylon) kabilardan tayyorlangan kiyimlarni yuvish uchun.	6
Бережная стирка (Yumshoq yuvish)	Nozik matoli kiyimlarni yumshoq yuvish uchun qo'llaniladi.	3
ECO 40-60	Suv va energiya tejash orqali kirlarni yuvish uchun qo'llaniladi.	Nominal yuklanish
Стирка 20°C (20°C yuvish)	Oson ketuvchi dog'larni yuvish uchun qo'llaniladi	3

\*Nominal yuklanish - 8/8,5 kg (Kir yuvish mashinasi modeliga qarab turli xil)

### Eslatma

1. Kir yuvish vaqti suvning bosimi, oqimi, harorati, kiyim turi, og'irligi va boshqa jihatlariga ko'ra o'zgarishi mumkin.
2. Displayda ko'rsatilgan kir yuvish uchun ketadigan vaqt real talab qilinadigan vaqtdan farq qilishi mumkin.
3. Kir yuvish mashinasining minimal yuklanish hajmi 1 kg quruq kiyimdan iborat bo'lishi kerak
4. Kiyim miqdori va yuvish vositasi turiga qarab chayqash qoniqarli amalga oshirilmasligi mumkin. Ushbu holatda chayqash uchun qo'shimcha vaqt belgilang.
5. Yuqorida ko'rsatilgan jadvaldagi parametrlar kir yuvish mashinalari turiga ko'ra farq qilishi mumkin.

### QO'SHIMCHA FUNKSIYALAR

#### **Bolalardan himoyalash funksiyasi**

**Bolalardan himoyalash funksiyasi** mashina ishlab turgan holatda ham o'rnatilishi mumkin. Bunda mashina eshikchasi **Bolalardan himoyalash funksiyasi** orqali qulflanadi.

Bu funktsiyani o'rnatish uchun **Dastur** dastagini burang, so'ngra **Harorat (Температура)** tugmasini 3 soniya davomida bosib turing. Eshikni ochish uchun mazkur harakatlarni takrorlang.

### SAQLASH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

- Kir yuvish mashinasi uzoq yillar xizmat qilishi uchun uni yaxshi holatda saqlash lozim. Sifatli texnik xizmat ko'rsatish kir yuvish mashinasi xizmat muddatini uzaytirish mumkin.
- Elektr toki urishidan saqlanish maqsadida texnik xizmat ko'rsatish vaqtida mashina vilkasini rozetkadan chiqaring.

#### **Kir yuvish mashinasi korpusini tozalash**

Kir yuvish mashinasi tashqi qismini toza va yumshoq latta bilan qiruvchi moddalar mavjud bo'lmagan neytral yuvish vositasi yordamida tozalang. Mashinani nam latta bilan tozalagandan so'ng uni quritish uchun quruq latta bilan arting.

## FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

! Mashinani etil spirti, erituvchi vositalar, benzin, tarkibida xlor mavjud yoki boshqa shunga o'xshash vositalar yordamida tozalamang.

! Kir yuvish mashinasiga to'g'ridan-to'g'ri suv quyvang.

### Kir yuvish mashinasining ichki qismini tozalash

Kir yuvish mashinasi barabanini tozalash

Ichki qismni 1 stakan (250 ml) oqartirish vositasini kir yuvish kukuniga aralashtirilgan holda yuving. Mashinani yoqing va issiq suv bilan to'la siklda kir yuvishni amalga oshiring. Zarur hollarda ushbu prosedurani takrorlang.


\* **"Barabanni tozalash"** dasturi mavjud modellarda ushbu funksiyadan foydalanish tavsiya etiladi.

! Qattiq suv ta'sirida hosil bo'lgan cho'kmalarni yo'qotish uchun ishlab chiqaruvchi tavsiyalariga amal qilgan holda faqatgina kir yuvish mashinalari uchun mo'ljallangan vositalardan foydalaning.

### Kir yuvish mashinasi eshikchasining zichlagichini tozalash

Har bir kir yuvishdan so'ng hosil bo'lgan ifloslikni toza va yumshoq latta bilan arting. Agar zichlagichda begona predmetlar tiqilib qolgan bo'lsa, ularni olib tashlang.


Chiqaring



### Yuvish vositasi qutisini tozalash usullari

- Yuvish vositasi qutisida qoldiqlar qolgan bo'lsa, ularni muntazam tozalab boring.
- Qutini chiqarib olib, uni suv bilan tozalang va uni yana qayta joylashtiring.

### Suv tushirish klapanini tozalash (har 6 oyda tozalang)



Suv kelishini to'xtating



Suv chiqarish shlangini uzing



Dag'al cho'tka bilan filtrni tozalang




Suv chiqarish shlangini ulang va mustahkamlang

### Drenaj nasosi filtrini tozalash (har oyda bir marta tozalash tavsiya etiladi)

! **Diqqat!** Drenaj nasosi filtrini ochishdan oldin, drenaj shlangidagi qoldiq suvlarni chiqarib tashlang. Kir yuvish mashinasi ishlab turgan paytda filtrni tozalamang.


## FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA



Kir yuvish mashinasi pastki panelidagi dekorativ qopqoqni tepa qismini ohista bosib oching (1).

Kichkina drenaj shlangini chiqarib, uni uzunligi bo'yicha cho'zing.

**Diqqat!** Shlang qisilib yoki buklanib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.



Suvni chiqarib tashlash uchun istalgan hajmdagi idishdan foydalaning. Kichkina drenaj shlangi tiqinini chiqarib (2) suvni to'liq oqizib yuboring.

So'ngra drenaj nasosi fil'trini oching(3).



Fil'trni begona predmetlardan tozalang (3). Shundan so'ng fil'trni joyiga qo'ying (3) va mahkamlang.

Drenaj shlangi tiqinini yoping va uni oldingi holatga qaytaring (2).

Pastki paneldagi qopqoqni yoping.

**Kir yuvish mashinasini qishda harorat 0°C da past bo'lganda saqlash uchun uning ichidagi suvni to'liq chiqarib tashlang.**

Buning uchun quyidagi harakatlarni amalga oshirish kifoya:

1. Siqish siklini yoqing.
2. Siqish sikli tugagandan so'ng kir yuvish mashinasini ta'minotdan uzib qo'ying.
3. Suv keluvchi kranni yoping.
4. Suv keluvchi shlangni chiqarib tashlang.
5. Suv shlangida qolgan suvni to'kib yuborib, uni kanalizatsiya tizimidan uzib qo'ying.
6. Drenaj nasosi fil'tri orqali suvni chiqarib yuboring.
7. Mashinani qayta yoqishda atrofda harorat 0°C dan yuqori ekanligiga ishonch hosil qiling va barcha shlanglarni yo'riqnomaga muvofiq o'rnatning.

### NOSOZLIKLARNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH BO'YICHA QO'LLANMA

Jadval №5

Nosozlik turi	Sababi
Kir yuvish mashinasi eshikchasi ochilmasligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kir yuvish mashinasi ish jarayonida, mashina ishi suv sathi, yuqori harorat tufayli to'xtab qolgan yoki tok o'chib qolgan.</li> <li>• Bolalardan himoya funksiyasi yoqilgan</li> <li>• Zichlagich xalqasi va eshikcha o'rtasida kiyim qisilib qolgan</li> </ul>
Noxush hid chiqarishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mashinaning bir qancha tarkibiy qismlari rezinadan qilinganligi sababli o'zidan noxush hid chiqarishi mumkin</li> </ul>
Kir yuvish bakiga suvning tushmasligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Suv uzatish jo'mragi yopiq yoki suv quyish shlangi buklanib qolgan</li> <li>• Suv uzatish shlangi muzlab qolgan</li> <li>• Suv uzatish shlangi yoki metall fil'tr to'silib qolgan</li> </ul>
Ish jarayonida suv darajasining kamayib ketishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ba'zi bir sabablarga ko'ra suv sathi kamaygan bo'lsa, mashina avtomatik tarzda qo'shimcha ravishda suv quyadi</li> </ul>

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

davomi jadval №5

Kir yuvish paytida suvning oqib ketishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ko'p ko'piklanadigan ancha miqdordagi yuvish vositasi solinganligi</li> </ul>
Kir yuvish tugashiga qolgan vaqtning o'zgarib turishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Yuvilayotgan kiyim suv miqdoriga mos ravishda teng taqsimlanmaganligi</li> <li>• Suvning bosimi o'zgarishi bilan ish tugashining real vaqti kamayishi yoki ortishi mumkin</li> <li>• Agar barabandagi kiyimlar o'zaro zich bir-biriga chirmashib ketgan bo'lsa siqish vaqti uzaytiriladi</li> </ul>
Saqish jarayonida g'alati ovoz chiqishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Elektr ta'minotiga ulanadigan sim kir yuvish mashinasiga tegib turibdi</li> <li>• Tashish uchun mo'ljallangan mustahkamlovchi boltlar yechilmagan</li> <li>• Ichki qismda to'g'nog'ich yoki boshqa metall parchalari qolib ketmaganligini tekshiring</li> </ul>
Elektr ta'minoti o'chirilganda dasturning to'xtab qolishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Elektr ta'minoti o'chirilganda, dastur to'xtab qoladi va elektr ta'minoti qaytadan yoqilganda dastur ishi davom etmaydi, shunga ko'ra <b>Dasturni tanlash</b> dastagini burab, boshqatdan dasturni yoqish tavsiya qilinadi</li> </ul>
Kir yuvish mashinasi eshigini shoshilinch ochish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Elektr ta'minoti (tok) uzoq vaqtga ketib qolgan bo'lsa mashina eshigini shoshilinch ochish zarur bo'ladi. Buning uchun rozetkadan simni uzib, eshikning pastki o'ng tarafidagi trosni pastga torting, tegishli signal eshiltirilgandan so'ng mashina eshigini ochishingiz mumkin (suv sathi past va suv harorati siz uchun xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qiling)</li> </ul>

## Nosozliklarni bartaraf etish

Jadval №6

Nosozlik kodi	Nosozlik turi	Tekshirish joyi	Muammoning hal etilishi
	Kir yuvish mashinasi umuman ishlamasligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ta'minot shnuri yaxshi ulanganligini tekshiring</li> <li>• <b>Dastur</b> dastagini burang</li> <li>• <b>CTAPT/CTOP</b> tugmasini bosing</li> <li>• Tarmoqda elektr toki borligini tekshiring</li> </ul>	
E11 F8E1	Kir yuvish bakiga suvning tushmasligi yoki suvning kuchsiz oqimi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kran ochiqligini tekshiring</li> <li>• Suv uzatish shlangi muzlamaganligini tekshiring</li> <li>• Suv uzatish shlangi yoki metall filtr to'silmaganligini tekshiring</li> <li>• Suv uzatish o'chirilmaganligini tekshiring</li> </ul>	Sabablarni aniqlab, bartaraf etgandan so'ng, moshina ishini davom ettirish uchun <b>CTAPT/CTOP</b> tugmasini bir marta bosing va kir yuvishni boshqatdan boshlang
E12 F9E1	Suv to'kilmayapdi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Suv to'kish shlangi noto'g'ri ulangan yoki buklanib qolgan</li> <li>• Suv to'kish shlangi juda yuqori o'rnatilgan</li> <li>• Suv to'kish shlangi tiqilib qolgan</li> <li>• Suv to'kish shlangi juda uzun</li> </ul>	Sabablarni aniqlab, bartaraf etgandan so'ng, moshina ishini davom ettirish uchun <b>CTAPT/CTOP</b> tugmasini bir marta bosing va kir yuvishni boshqatdan boshlang
H	Eshik ochilmayapdi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kir yuvish paytida suvning harorati 40°C dan yuqori</li> <li>• Barabandan suv satxi baland</li> </ul>	Suvning harorati 40°C dan va sathi pasaygandan so'ng eshik avtomatik tarzda ochiladi
U3	Siqilmayapdi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kir yuvish mashinasi to'g'ri o'rnatilganligini tekshiring</li> <li>• Yuvilayotgan kiyimning og'ir yoki hajmi kattaligini tekshiring</li> <li>• Yuvilayotgan kiyimning haddan ortiq kamligini tekshiring</li> <li>• Jun mato o'ralib qolmaganligini tekshiring</li> </ul>	Agar kiyim juda kam bo'lsa unga yana qo'shing va keyin mashinani tekshiring, so'ngra eshikchani yoping va <b>CTAPT/CTOP</b> tugmasini bir marta bosing va kir yuvishni boshqatdan boshlang

# FOYDALANISH BO'YICHA YO'RIQNOMA

davomi jadval №6

Nosozlik kodi	Nosozlik turi	Tekshirish joyi	Muammoning hal etilishi
U33	Mustahkamlovchi boltlarning yechilmaganligi to'g'risida eslatma	• Mustahkamlovchi boltlarni yechilganligini tekshiring	Mashinani o'chirib mustahkamlovchi boltlarni yechib oling
U4	Eshikning yopilganligi		"Eshikni qulflash" usulida eshikchani yoping, keyin CTAPT/CTOP tugmasini bir marta bosib va kir yuvishni boshqatdan boshlang

## UTILIZASIYA QILISH

	<p>Mahsulot o'rami qayta ishlash, saqlash uchun maxsus poligonlarda joylashtirish va utilizasiya qilishda atrof-muhitga zarar etkazmaydigan ekologik toza materiallardan tayyorlangan. O'ramdagi mahsulotlar tegishli yoriqqa ega.</p> <p>Mahsulotdagi yoki o'ramdagi belgi uning maishiy chiqindi sifatida utilizasiya qilinishiga yo'l qo'yilmasligini bildiradi. Mahsulot utilizasiya qilinishi uchun elektr jihozlarini utilizasiya qilishga mo'ljallangan tegishli punktlarga topshirilishi lozim. Mahsulotni utilizasiya qilish qoidalariga rioya etib, Siz bu kabi mahsulotlarni utilizasiya qilishning qoidalariga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadigan atrof-muhitga hamda odamlar sog'lig'iga zarar etishining oldini olishga xizmat qilasiz.</p>
---	--

## QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR

Ishlab chiqarilgan davlat - O'zbekiston Respublikasi.

Xizmat muddati: sotib olingan kundan boshlab, foydalanish va texnik standartlarni qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga qat'iy rioya qilgan holda foydalanilganda 7 yil.

Siz vakolatli servis xizmati ko'rsatish markazlari haqida [www.artelgroup.org](http://www.artelgroup.org) web-saytida bilib olishingiz mumkin. Mazkur ma'lumot mahsulotga ilova qilinadigan texnik hujjatning bir qismi sanaladi.

Ishlab chiqaruvchi mahsulotlarning texnik va tuzilish xususiyatini takomillashtirish, shuningdek energetik samaradorlik ustida tinimsiz izlanish olib boradi.

Mahsulotning xizmat muddati tugaganda tugaganda servis markazi uni ta'mirlash va ehtiyot qismlar etkazib berishni rad qilish huquqiga ega.

Xizmat muddati tugagandan so'ng foydalanish tavsiya etilmaydi.

Mahsulotni utilizasiya qilish uchun shunday turdagi mahsulotlarni utilizasiya qilishga ixtisoslashgan kompaniyalarga taqdim etish lozim.

### Hurmatli xaridor!

**«Artel» savdo belgisi Sizning tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiradi hamda foydalanish qoidalariga rioya etilganda mazkur mahsulotning yuqori sifat bilan nuqsonsiz ishlashiga kafolat beradi.**



## СОДЕРЖАНИЕ

Требования безопасности	28
Общие указания	30
Технические характеристики и требования	31
Комплект поставки	31
Устройство автоматической стиральной машины	32
Ознакомление с панелью управления	33
Установка и подключение (подготовка к стирке)	38
Перед стиркой	40
Инструкция по применению моющего средства	43
Использование стиральной машины	43
Содержание и техническое обслуживание	46
Руководство по выявлению и устранению неисправностей	48
Утилизация	49
Дополнительная информация	49



### Уважаемый покупатель!

При покупке автоматической стиральной машины (далее — машина) проверьте правильность заполнения гарантийного талона, наличие штампа организации, продавшей ее и даты продажи. Проверьте комплектацию и убедитесь, что машина не имеет видимых повреждений. Руководство по эксплуатации разработано для разных моделей машин. В руководстве по эксплуатации указана информация об управлении машиной и особенности ее эксплуатации. Исполнения моделей отличаются конструктивными решениями.

### ВНИМАНИЕ!



Перед началом использования внимательно прочитайте настоящую инструкцию по применению автоматической стиральной машины и обратите особое внимание на пункты, обозначенные специальными символами (см. УСЛОВНЫЕ ОБОЗНАЧЕНИЯ ниже).

### УСЛОВНЫЕ ОБОЗНАЧЕНИЯ

-  Внимание!
-  Запрещено!
-  Заземление
-  Удар током

# ИНСТРУКЦИЯ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ


## ТРЕБОВАНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ

Машина — электробытовой прибор, поэтому при ее эксплуатации следует соблюдать общие правила электробезопасности. По типу защиты от поражения электрическим током машина относится к классу I.




Машина не предназначена для использования лицами (включая детей) с пониженными физическими, чувственными или умственными способностями либо при отсутствии у них жизненного опыта или знаний, если они не находятся под контролем или не проинструктированы об использовании машиной лицом, ответственным за их безопасность.

